



ALISHER NAVOIY EPIK ASARLARINI O‘RTA MAKTABDA O‘RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206904>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot darslarida Alisher Navoiy epik asarlarining o‘rganilishiga innovatsion yondashuv haqida mulohazalar bildirilgan. “Xamsa” dostonlarining o‘rganilishi rejalashtirilgan sinflar miqyosida interfaol usullar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion yondashuv, interfaol usullar, texnologiya, mantiqiy fikrlash, jadval, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs-munozara”, “Ssenariy”.

Umumta’lim maktablarining deyarli barcha sinflarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu ma’lumotlar adib hayoti tafsilotlari, asarlaridan namunalar yoki parchalar, Alisher Navoiy haqida yozilgan zamonaviy asarlar ko‘rinishida keltirilgan. O‘rta maktab o‘qituvchi xodimlari ushbu materiallarni o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari uchun pedagogik faoliyatlarini shakllantirishlari zarurati – bugungi kunning bosh talablaridan biri. Chunki kelajak uchun har tomonlama barkamol shaxsning yetishtirib berishimiz shart.

Hozirgi kunda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar yangi axborotni tez va yaxshi o‘zlashtiruvchi, shu asosda to‘g‘ri qaror chiqara oluvchi, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan shaxslarni talab qilmoqda. Shu yo‘nalishda samarali faoliyat olib borish uchun zamonaviy o‘qitish usullari – interfaol usullar, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishimiz zarur. Avvalo, bu atamalarning izohiga to‘xtalib o‘taylik: “innovatsiya” inglizcha “innovation”, ya’ni “yangilik, yangilik kiritish” ma’nolarini anglatadi. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi ish faoliyatiga yangilik va o‘zgarishlar kiritish jarayoni hisoblanib, bunda biz interfaol usullarga murojaat qilamiz. “Interfaol” yoki “interaktiv” (“inter” – bu o‘zaro, “act” – harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilmoq, muloqot qilmoq ma’nolarini anglatadi. Qisqa qilib aytganda, interfaol usullar har ikkala tomon (o‘qituvchi va o‘quvchi) ning o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida faol ishtirok etishlarini talab qiladi. Avvaldan mavjud bo‘lgan an’anaviy usullarda o‘qituvchi mavzuni bayon qilib, o‘quvchi nafaol tinglovchi vazifasini bajarardi. Yangicha fikrlash tizimi ta’lim tizimida ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Bundan kutilgan maqsad o‘quvchi va o‘qituvchining

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



o‘z faoliyati jarayonida ijobiy natijaga erishishidir. Biz atayin “o‘quvchi” so‘zini birinchi o‘ringa qo‘ydik, chunki uning rejalashtirganimizdan ko‘ra ko‘proq natijaga erishishi juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘z o‘quv mashg‘ulotlarida interfaol usullarni qo‘llamoqchi bo‘lsa, avvalo, o‘tiladigan mavzuga to‘liq mos tushadigan usulni tanlay olishi va tanlangan usul o‘sha sinf o‘quvchilariga ham to‘g‘ri kelishi kerak. Chunki parallel sinflarning barchasi ham bir xil o‘zlashtirish va natija berish imkoniyatiga ega emas. Qaysidir sinflar og‘zaki nutq bo‘yicha faol bo‘lsa, boshqa sinflar ijodiy fikrlash borasida yaxshi shakllangan bo‘ladi.

Yangicha texnologiyalar asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda yana bir jihatga e‘tibor berish zarur. O‘quvchilar o‘zini erkin tutib, mustaqil fikrlarini bayon qilishi jarayonida sinf xonasida shovqin bo‘lishi tabiiy holat. Yoki o‘quvchilar bir-birlarining fikrlarini bayon qilishga xalal berishlari mumkin. Shuning uchun doskaning bir chekkasiga o‘zini tutish qoidalarini yozib qo‘yish kerak bo‘ladi. Bunda sinfdoshini hurmat qilish, o‘zgalar fikrini tinglay bilish, “o‘ng qo‘l” qoidasiga amal qilish kabilarni nazarda tutish kerak bo‘ladi.

Interfaol darslar uchun yana bir mos keluvchi jihat – darsga shoir tanlash va uni o‘quvchilar bilan birga tahlil qilish. Biz, yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘rta umumta’lim maktablarida Alisher Navoiy asarlarining o‘rganilishiga e‘tibor qaratganimiz sababli, Navoiy qalamiga mansub hikmatli so‘zlar, ruboiy, qit‘a yoki fardlardan foydalanishni ma’qul deb hisoblaymiz. Matn tanlaganda ham, juda ko‘p ishlatilgan mashhur sitatalarni emas, nisbatan kamroq qo‘llangan va, albatta, o‘quvchilar yoshiga mos keladiganlarini tanlay bilishimiz zarur. Masalan:

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim ne der.
Tuzlukka moyil o‘lki, ishing borg‘ay ilgari.

Kimki ulug‘roq – anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq – anga shafqat kerak.
Kimki jahon ahlida inson erur,

Bilki, nishona anga iymon erur.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Olingan misollar hajm jihatidan qisqa, lekin mazmunan keng bo‘lishi hisobga olinishi muhimdir.

Endi o‘rta umumta’lim maktablarida o‘rganilishi rejalashtirilgan Alisher Navoiyning epik asarlariga to‘xtalib o‘tsak. Epik asarlar mazmunidagi voqealar

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



rivojlanishi o‘quvchida kata qiziqish uyg‘otadi, chunki ularning mazmunini o‘quvchi o‘z so‘zi bilan bayon qila oladi, lirik asarlar tahliliga esa uning so‘z boyligi kamlik qilishi mumkin.

5-sinfda “Adabiyot” darsligida “Hayrat ul-abror” dostonidan “Sher bilan Durroj”, “Hotami Toy” hamda “Qanoatli va tamagir” hikoyatlari berilgan. Xo‘sh, bu mavzuda qaysi interfaol usullarni qo‘llash mumkin? Misol tariqasida “Sher bilan Durroj” hikoyatini ko‘rib chiqamiz. Avvalo, dars shiori sifatida quyidagi misralarni qo‘llash mumkin:

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘mag‘a tahsin degil.

Hikoyatda to‘g‘rilik masalasi ko‘tarilgani uchun o‘quv mashg‘ulotini yuqoridagi hikmatli so‘zni tahlil qilishdan boshlash joiz deb o‘ylaymiz. 5-sinf o‘quvchisiga dars qiziqarli bo‘lishi uchun “Sher bilan Durroj” hikoyatini sahnalashtirish mavzuni o‘zlashtirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. “Kichik guruhlarda ishlash” usulidan foydalangan holda sinf o‘quvchilarini 4 guruhga bo‘lib, timsollarni tahlil qilish qiziqarli o‘tadi. Masalan, “Sher” guruhi hikoyatdagi sher timsolini tahlil qiladi, yaxshi va yomon tomonlarini qiyoslaydi. “Durroj” guruhi, “Ovchi” guruhi ham shu yo‘nalishda ishlaydi. 4-guruhni esa “Alisher Navoiy” deb nomlab, shu hikoyat orqali muallif qanday g‘oyani ilgari surgani haqida mustaqil fikrlar bildirishni talab qilsak, ko‘p o‘quvchilarning yangicha tomonlari namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, 5-sinfda lug‘at bilan ishlashga alohida e’tibor berish zarur. Chunki, boshlang‘ich sinflarda Alisher Navoiy asarlarini aslyatidan namuna o‘qimagan o‘quvchi uchun “Hayrat ul-abror” dostonini qabul qilish juda qiyin kechadi. Doskaga tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni yozib, darslikda berilgan izohi (o‘zingiz tushunilishi og‘ir deb hisoblagan so‘zlaringizni ham qo‘shishingiz mumkin)ni rangli qog‘ozlar(stikerlar)da berish mumkin. O‘quvchilar matn bilan ishlash jarayonida izohlarning mosini o‘sha so‘z qarshisiga yopishtirib qo‘yadilar. Shunda darslikda berilgan lug‘atlardan ham unumli foydalangan bo‘lamiz va o‘quvchilarning so‘z boyligi ham ortadi.

9-sinflar uchun “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiyning jahonga mashhur “Farhod va Shirin” dostoni kiritilgan. Bu mavzuga 9 soat ajratilgan. Har bir o‘quv mashg‘ulotida har xil interfaol usullarni qo‘llash mumkin. Muhimi – o‘quvchi mavzuni yaxshi o‘zlashtirsin va doston matni bilan ko‘proq ishlasin. Bu mavzularni o‘rganishda qo‘llash mumkin bo‘lgan dars usullari haqida mulohaza bildirsak.

Masalan, FSMU texnologiyasi:

F – fikringizni bayon eting;

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

“Farhod va Shirin” dostonidagi voqealar rivoji, asosiy yoki epizodik qahramonlarning xatti-harakatlariga o‘quvchilar o‘z nuqtayi nazarlari bilan baho beradilar va bu fikrlarini himoya qiladilar. Bu usul bilan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantira olishimiz mumkin bo‘ladi.

Yoki “Yelpig‘ich” texnologiyasidan ham foydalanish mumkin. Doston qahramonlarining fazilat va nuqsonlari yelpig‘ich qismlariga joylashtirgan holda, har bir timsolga xarakteristika berish mumkin. Shu o‘rinda teskari usuldan ham foydalanishimiz mumkin. Ya‘ni Farhod va Shirinning salbiy tomonlari yoki Xusrav va Sheruyaning ijobiy tomonlarini topish vazifasini berish mumkin. Ushbu topshiriqning hayotiy ahamiyati ham bor. O‘quvchilar kelajakda yomon odamlarning ham yaxshi jihatlari izlab topishga harakat qiladilar.

9-sinfda “Kamil inson tushunchasi” degan alohida mavzu ham berilgan. Bu mavzuni “Bahs-munozara” usuli yordamida o‘tkazilishi joiz deb hisoblaymiz. O‘quvchilarga an‘anaviy emas, biroz noodatiy savollarni bersak, o‘quv mashg‘ulotimiz qiziqarli o‘tadi. Masalan:

1. “Kamil” yoki “Kamol” ismining ma‘nosini bilasizmi? (“Ismlar izohi” lug‘atidan foydalanish kerak)

2. “Imon” va “insof” tushunchalarini bir-biridan farqlay olasizmi?

3. Haqiqiy mo‘min-musulmon inson qanday bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

Shu o‘rinda hadislardan va hayotiy voqealardan namunalar keltirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lard. O‘quvchilar mantiqiy fikrlab, shaxsiy hayoti uchun ham saboq olishiga erishamiz.

Yuqoridagi mulohazalarga xulosa sifatida aytish mumkinki, interfaol usullardan o‘rinli foydalana olsak, amaliy natijalarga ega bo‘lishimiz mumkin. Bir o‘quv mashg‘ulotida ko‘p usullarni qo‘llamasdan, 1-2ta usulni to‘liq, har tomonlama amal qilgan holda qo‘llashimiz darkor. Shundagina sa‘y-harakatlarimiz o‘z mevasini beradi. Zamonaviy o‘qitish usullarida o‘qituvchi o‘z shaxsini namoyon qila olishiga ham ko‘p narsa bog‘liqligini unutmaslik kerak. Ustoz o‘z tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, yuz ifodalari, o‘quvchilarning fikrlari va xatoliklariga munosabati bilan sinfning diqqat markazida turadi. U o‘zini barchaga ibrat bo‘la oladigan darajada tutishi lozim. Shunda o‘qituvchining mehnati o‘z samarasini beradi, deb o‘ylaymiz.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – T.: “O‘zbekiston”, 2013. – 256 b.
2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. – T.: “Fan”, 1987-2000
3. M.Davletshin va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2007. – 140 b.
4. Q.Yo‘ldoshev va boshqalar. Adabiyot 5-sinf (2-qism) : darslik / – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
5. Q.Yo‘ldoshev va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 368 b.
6. Q.Yo‘ldoshev. Adabiy saboqlar. Metodik qo‘llanma. Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun. – T.: “Bilim”, 2003. – 144 b.
7. R.Ishmuhamedov va boshqalar. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. T.: “Iste’dod”, 2008. – 141 b.